XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-136-7-99-K/25 Nurobod tumani

2026-yilda Nurobod tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan, shuningdek, Nurobod tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 5-dekabrdagi 03/143-sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koyeffisiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2026-yil uchun Nurobod tumani hududida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Musurmanov), tuman Soliq inspeksiyasi (M.Erkinov)lar

birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash chorasini ko‘rsin.

4. Ushbu qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BURANOV MAXSUD ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Nurobod
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-136-7-99-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Nurobod tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00

Xalq deputatlari Nurobod
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-136-7-99-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar*

ming so'mda

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Nurobod tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,00	1,20